

GLOBALLASHGAN AXBOROT MAKONIDA TARBIYANING TA'LIM TIZIMGA TA'SIRI

Shermanov Isobek Chilmamatovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

shermanov1983@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv jarayonining ta'lism tizimiga ta'siri axborotlashtirishning ta'lism tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: insoniyat, tarix, globallashuv, ta'lism, axborot jamiyati, taraqqiyot, fan, madaniyat, tarbiya.

Insoniyatning XXI asrga va o'z tarixiy taraqqiyotining yangi ming yilligiga qadam qo'yishi ijtimoiy bilishda qisqa va qamrovli qilib "globalizatsiya"deb nomlangan mutlaqo yangi ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq. Globalizatsiya - bu jamiyat taraqqiyotining agrar (birinchi to'lqin) va sanoat (ikkinchi to'lqin) bosqichlari o'rnini egallagan uchinchi to'lqin sivilizatsiyasidir (D.Bell, E.Toffler, S.Xantington). Globalizatsiya, hozirgi zamon postindustrial axborot jamiyati sharoitlarida fan-texnika taraqqiyotiga bugungi kunda jamiyat ekologiya, iqtisod, siyosat, mafkura orqali kuchli ta'sir ko'rsatmoqda, zotan, ular mazkur taraqqiyotni jadallashtirishi, unga rag'bat berishi yoki, aksincha, uni sustlashtirishi mumkin. Globallashayotgan dunyo ziddiyatlarining kompleksi YuNESKO taqdim etgan XXI asr uchun ta'lism bo'yicha xalqaro komissiyaning «Ta'lism berkitilgan xazina»deb nomlangan ma'ruzasida quyidagicha ifodalangan: - universal va individual o'rtasidagi ziddiyat; - an'ana va zamonaviy tendensiyalar o'rtasidagi ziddiyat; - uzoq va qisqa muddatli vazifalar o'rtasidagi ziddiyat; - raqobat zaruriyati va imkoniyatlar tengligiga intilish zaruriyati o'rtasidagi ziddiyat; - bilimlarning rivoji va ularni inson tomonidan o'zlashtirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat; - ma'naviy va moddiy dunyo o'rtasidagi ziddiyat[1,58-59 b].

Insoniyat tomonidan yaratilgan qanday kashfiyot yoki ixtiro bo'lmasin, u albatta shaxs kamoloti, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Boshqacha aytganda, "U shunday zotki, sizlar uchun Yerdagi barcha narsalarni yaratdi".¹ [4, 624 b]

Bugungi kibermakon taraqqiyoti natijasida biz bitta tugmani bosish orqali e-mail, audio, video, ijtimoiy tarmoqlar kesimida har qanday ma'lumotni uzatish, qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldik. Albatta bunda inson omili, aql zakovati, intellektual salohiyati muhim o'rin tutadi.

¹ А.Мансур. Куръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.: Тошкент ислом университети, 2004. –624 б. Бакара сураси, 29-оят. –Б.5.

Dunyoni o‘zgartirgan inson aql-zakovatining asosida **ilm** turishi ham oddiy haqiqat. Inson ilmni ta’lim va tarbiya orqali oladi. Shu sababli, unga (ilmga) erishish yo‘llarini topish, bilim olishga xizmat etuvchi mexanizmlarni ishlab chiqishga bo‘lgan intilish – insoniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan tezlashgan, XXI asr taraqqiyotidagi drayver sifatida maydonga chiqqan “internet” fenomeni, o‘zidan ko‘plab “tarixiy izlar” qoldirmoqda. Shulardan biri, bu – kibermakondir. Kibermakon tarixiy silsila nashidasi bo‘lib, u (kibermakon) barcha sohalar singari ta’lim va tarbiya tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) bog‘liq holda internetning kengayishi, ta’lim olish yo‘lidagi geografik to‘siqlarni yo‘qqa chiqardi. Xususan, 1990-yillarga kelib internetning paydo bo‘lishi bilan kompyuterga asoslangan ta’limning yangi shakli paydo bo‘ldi, bu “virtual ta’lim”² [5, 97-122 b] deb nomlanuvchi maxsus tizimda – ta’lim va tarbiya integratsiyasida kibermakonga bog‘landi. Bu obyektiv jarayon natijasi o‘laroq, ko‘plab virtual ta’lim imkoniyatlarini ochishga qaratilgan konsepsiylar yuzaga keldi. Quyida, kibermakon omili bilan bog‘liq ayrim ilmiy-amaliy tadqiqot natijalarini ko‘rib chiqamiz:

Yuqorida yorqin ifodalangan ijtimoiy talab mavjudligiga qaramasdan jahon ta’lim tizimi nufuzli olimlar fikricha hozirda ta’limning hajmi va sifatiga tobora oshib borayotgan ehtiyojni qondirish holatida emas. Hozirgi zamon kompyuterlashtirilgan, axborot jamiyatni o‘zining asosiy resursi: butun kishilik jamiyatni uchun ulkan qimmatga ega bo‘lgan ob’ektiv, sermazmun axborotga asoslanadi. Kompyuter inqilobi negizida axborot jamiyatining vujudga kelishi inson va texnika nisbatini tubdan o‘zgartiradi, inson ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni tartibga soluvchi, o‘ziga xos menejer vazifasini bajaradi. Axborot hozirgi zamon axborot jamiyatining asosiy ijtimoiy manbasi, bosh ijtimoiy boyligidir. Bu tushuncha kibernetika, genetika, informatika singari muayyan fanlarda, shuningdek, ilmiy bilish va ijod epistemologiyasida keng qo‘llanadi. Axborot ilmiy tushunchasi o‘zida u yoki bu axborotni tashuvchi xabarning mazmun jihatidan farq qiladi va uning son jihatini oladi. Axborotning soni tushunchasiga fanda «xabarda aytilgan hodisaning ehtimolligi darajasiga teskari proporsional kattalik» deb ta’rif berilgan. Hodisaning ehtimolligi darjasasi qancha yuqori bo‘lsa, xabarda uning sodir bo‘lishi haqida axborot shuncha kam bo‘ladi va aksincha.

Axborot umumilmiy tushunchasi dunyo moddiy birligining muhim jihatini - hodisalarning axborotga boyligini namoyon etadi. Bu ilgari mutlaqo har xil bo‘lib tuyulgan jarayonlar: texnik aloqa kanallari orqali xabarlarni uzatish, asab sistemasining faoliyati, kompyuterlarning ishlashi, boshqaruv jarayonlari va hokazolarga yagona nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Bularning barchasi axborotni uzatish, saqlash va qayta ishslash jarayonlari bilan bog‘liq.

² Laguardia J., Casanova A., Machado R. A experiência de aprendizagem on-line em um curso de qualificação profissional em saúde. Trab Educ Saúde, 2010. –№ 8 (1). –P. 97-122.

Kibernetika asoschisi matematik N.Viner «Kibernetika va jamiyat» deb nomlangan mashhur asarida: «Axborot - bu biz tashqi olamga moslashish va o‘z tafakkurimizni unga moslashtirish jarayonida mazkur olamdan oladigan mazmunning ifodasidir» [2, 121 b], -deb qayd etadi. Binobarin, axborot - bu vogelik hodisalarining rang-barangligini aks ettiruvchi tizimning maqsadlariga muvofiq ravishda va mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur yo‘sinda ifoda etish demakdir. Axborot aks ettirishning mustaqillik, faollik, maqsadga muvofiqlik, tanlash, tartibga solish va funksionallik singari jihatlari bilan bog‘liq. Hozirgi zamon ijtimoiy hayotida axborotning qimmati shundaki, u moddiy ishlab chiqarishni oshirish, transformatsiya qilish, o‘zgartirish, modernizatsiya qilish, shuningdek boshqaruv va menejment, amaliyot, siyosat va ma’naviy-madaniyat sohalarida maqbul qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon postindustrial jamiyatida axborot - bu insoniyatning iste’mol qilishda kamaymaydigan, balki ko‘payib boradigan strategik resursidir.

Inson hayotini jamiyatga, jamiyat taraqqiyotini umumbashariyatga globallashuvi davrida yuzaga keluvchi deformatsiyalashuv jarayoni. Uning o‘ziga xosligi shundaki, bunday xulq-atvor qaror topgan jamiyatda ma’naviy marginallashuv yuzaga keladi. Ya’ni ming yillik milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rniga, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi yangi “urf-odat”lar, “an’analar”, “o‘zgacha dunyoqarash”lar shakllanib, millatlar o‘rtasidagi “chegarani” belgilovchi milliy mentalitet darz ketadi.

Shu o‘rinda keltirib o‘tish kerakki, global xulq-atvor xususiyatiga ko‘ra “ijtimoiy xulq-atvor” dan tubdan farq qiluvchi axloqiy kategoriya hisoblanadi.

Ijtimoiy xulq-atvor – halollik, kamtarlik, xushmuomalalik, hamfikrlilik va boshqa shu kabi yuksak insoniy tuyg‘ularda namoyon bo‘luvchi majmuadir. Z. Manesi fikri bilan aytganda: bunday xulq-atvor insonga boshqalar bilan ijobiy, ya’ni shaxslararo o‘zaro munosabatlarni kuchaytirish va saqlashga xizmat qiladi [3, 4087-4091]. Bu ayni chog‘da jamiyatdagi kiberpsixologik jarayonlarga ham pozitiv ta’sir etadi. Masalan, halollik kamtarlik boshqalar bilan munosabatlarda adolatli, samimiyl va ishonchli bo‘lishga moyillikni ifodalaydi, rozilik esa boshqalarga ishonish, e’tiborli va hamdard bo‘lishga chorlaydi.

Xulosa qilib aystsak, axborot jamiyatni va uning tarkibiy elementlari o‘ta murakkab jo‘shqin ijtimoiy tizimlardir. Tizimning yaxlitligini, uning sifat jihatidan aniqligini saqlash, uning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlashni axborot jarayonlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tizim qancha murakkab, ko‘p komponentli va ko‘p aloqali bo‘lsa, ijtimoiy boshqarishda foydalilaniladigan axborot oqimlarining hajmi ham shuncha katta va xilma-xil bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti yakuniy hisobda uning moddiy-texnikaviy, energetik va axborot ta’motiga bog‘liqdir.

Axborot odamlar, ijtimoiy guruhlarning o‘zaro aloqa bog‘lashiga yordam beradi, fan, madaniyat va ta’lim saviyasini ko‘taradi, ma’naviyatning o‘sishiga, ma’naviyat va

demokratiyaning ustuvorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Bunday jarayonda ta'lim shaxsni o'rtalashtirishga emas, balki jahonda o'z milliy an'ana va qadriyatlarning sohibi va reprezentti bo'lgan dunyoning erkin fuqarosini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dyupon I.A. Mejdunarodnye integratsionnye protsessy v obrazovanii. -SP-b. : 2008. -S. 58-59.
2. Винер Н. Кибернетика и общество. –М.: 1958. С.121.
3. Manesi Z., Van Doesum N.J., Van Lange P.A.M. Prosocial behavior//Encyclopedia of Personality and Individual Differences. 2020. –P. 4087-4091.
4. Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.: Тошкент ислом университети, 2004. –624 б. Бақара сураси, 29-оят. –Б.5.
5. Laguardia J., Casanova A., Machado R. A experiência de aprendizagem on-line em um curso de qualificação profissional em saúde. Trab Educ Saúde, 2010. –№ 8 (1). –P. 97-122.
6. Chilmamatovich, Shermanov Isobek. "FIN TA'LIM TIZIMINING O'ZBEK TA'LIM TIZIMIGA ISLOH QILINISHI SABABLARI." Ustozlar uchun 57.4 (2024): 39-42.
7. Chilmamatovich, Shermanov Isobek. "HISTORY AND METHODOLOGY OF BIOGEN TECHNOLOGIES (ONTOLOGICAL-EPISTEMOLOGICAL ANALYSIS)." (2023).
8. Shermanov, Isobek. "BIOETIKA: FAN-TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI (ijtimoiy-falsafiy tahlil)." Farg'ona davlat universiteti 1 (2023): 194-194.
9. Chilmamatovich, Shermanov Isobek. "Main tasks in the material and spiritual transformation of biotechnological processes." Asian Journal Of Multidimensional Research 12.7 (2023): 24-30.
10. Шерманов, Исобек. "Ижтимоий тараққиётда биотехнологик жараёнларни шакллантириш: муаммо ва таклифлар." Общество и инновации 3.6 (2022): 64-69.
11. Chilmamatovich, Shermanov Isobek. "БИОТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАР ТАРАҚҚИЁТИДА МОДДИЙ ВА МАҲНАВИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ." PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL SI-1 (2022).
12. Шерманов, И. "МИЛЛИЙ ИЖТИМОЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА УНИНГ МУСТАҚИЛ ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ." ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА 35.2 (2017): 103-104.
13. Шерманов, Исобек Чилматович. "СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ: ОСНОВЫ МАТЕРИАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО СООТНОШЕНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 3-7 (2017): 142-146.

14. Shermanov, Isobek Chilmamatovich. "DIALECTIC AND SINERGETIC PECULIARITIES OF MATERIAL PRODUCTION PROCESS." *Theoretical & Applied Science* 2 (2017): 81-86.
15. Шерманов, И. Ч. "ИЖТИМОЙ ТАРАККИЁТДА МАЬНАВИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ МЕТОДОЛОГИК АҲАМИЯТИ." *ILMIY XABARNOMA*: 44.
16. Негматова, Шахзода, and Хасан Орипов. "Проблемы формирования интернет-грамотности среди молодежи." *Наука и образование сегодня* 5 (6) (2016): 37-39.
17. Negmatova, Shakhzoda Shukhratovna, and Nodirjon Ergashevich Togaev. "Diversity in social development." *Школа Науки* 5 (2019): 43-45.
18. Негматова, Шахзода, and Хасан Вахобович Орипов. "Влияние глобальных кризисов на духовность человека." *Достижения науки и образования* 10 (32) (2018): 33-35.
19. Negmatova, Shahzoda. "Competition between political parties in Uzbekistan." *European Journal of Humanities and Social Sciences* 1 (2016): 25-27.
20. Negmatova, Shahzoda Shuxratovna. "Legal processes of ensure of socio-economic competition." *The Fourth International Congress on Social Sciences and Humanities*. 2015.
21. Shukhratovna, Negmatova Shahzoda, and Oripov Khasan Abdivakhobovich. "The influence of intellectual competition to social development in the 21st century." *European science* 7 (49) (2019): 44-47.
22. Shukhratovna, Negmatova Shahzoda. "A Paradigm of Synergetics and Nonlinear Thinking." (2023).
23. Shukhratovna, Negmatova Shahzoda. "Modern Scientific Thinking: Innovative And Euristic Aspects." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.10 (2021): 13-17.
24. Negmatova, Sh. Sh. "THE CONCEPT OF COMPETITION IN THE SCIENTIFIC COMMUNITY." *Актуальные направления фундаментальных и прикладных исследований*. 2016.
25. Negmatova, Shahzoda Shuxratovna. "MORAL NORMS OF THE ECONOMIC COMPETITIVE." *Teoretičeskâ i prikladnâ nauka* 7.27 (2015): 44-47.